


## 2022- yilning yanvar-sentabrda Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrda Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 108 716,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 113,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 17,3 % ga yetdi.




## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>88 611,5</b>	<b>108 716,9</b>	<b>107,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	80 163,2	97 934,2	107,6
mahsulotlarga sof soliqlar	8 448,3	10 782,7	110,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>80 163,2</b>	<b>97 934,2</b>	<b>107,6</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>34 884,3</b>	<b>43 133,3</b>	<b>106,6</b>
sanoat	27 099,0	33 321,3	107,1
qurilish	7 785,3	9 812,0	104,9
<b>xizmatlar</b>	<b>45 278,9</b>	<b>54 800,9</b>	<b>108,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12 527,4	15 079,8	106,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	9 695,0	12 283,4	121,3
boshqa xizmat tarmoqlari	23 056,5	27 437,7	104,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 37 510,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 % ga yuqoridir.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 90,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 34,0% ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 56,0 % ni tashkil qildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	90,5	90,1
mahsulotlarga sof soliqlar	9,5	9,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>43,5</b>	<b>44,0</b>
sanoat	33,8	34,0
qurilish	9,7	10,0
<b>xizmatlar</b>	<b>56,5</b>	<b>56,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,6	15,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	12,1	12,5
boshqa xizmat tarmoqlari	28,8	28,1

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 107,1% (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 34,0%), qurilishda – 104,9% (10,0 %), xizmatlar sohasida – 108,5 % ni (56,0%) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 106,8 % (15,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 121,3 % (12,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,0 % dan (28,1 %) iborat bo'ldi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 2,2 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrda – 4,2 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrda – 1,8 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 4,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrda – 8,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,0 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrda – 1,9 f.p.)ga ko'paydi

## 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-sentabrda YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,8 % va qurilishda – 120,1 % qayd etildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 46,8 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrda – 49,8 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

49,8 %

2022- yil

46,8 %